



MOVOROUNNAHR HUDUDIDA YOZILGAN O‘ZBEK TILIDAGI TAFSIRLAR VA ULARNING AHAMIYATI

Abdumalikova Muslima

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi talabasi

Telefon raqami: 97 771 39 82

Ilmiy rahbar: M.M.Agzamova

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD,

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi dotsent v.b.

Annotatsiya: Maqolada Qur’oni karimning tafsiri, mufassir vatandoshlarimizning xalqimiz uchun tafsir ilmi yo‘lida ko‘rsatgan xizmatlari va Movarounnahr hududida chop etilgan Qur’oni karimning turli tafsirlari to‘g‘risida gap boradi. Shuningdek maqolada, Qur’oni karim chop etilgan nashriyotlar, o‘zbek tilida yozilgan tafsirlardagi farqlar to‘g‘risida ham ma’lumotlar berib o‘tilgan.

Kalit so‘z: Tafsir, nashriyot, mufassir, Qur’oni karim, sura, fiqhiy masalalar, qo‘lyozma, tarjima.

Qur’oni karimni tafsir qilish yurtimizda hozir ham davom etib kelmoqda. Mustaqillik yillarida, qolaversa, so‘ngi yillarda diniy-ma’rifiy sohaga davlat miqyosida berilgan e’tibor natijasida ushbu soha rivoji uchun yanada keng sharoitlar yuzaga kelmoqda. Mustaqillikning ilk davrida, shuningdek, mustaqillikdan oldin ham dunyo yuzini ko‘rgan Qur’oni karim tafsir va tarjimalari qatorida Oltinxonto‘ra tarjimasi, Shamsiddin Boboxonov tomonidan qilingan Amma porasining tarjimasi, Alouddin Mansurning izohli tarjimasi, Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning «Tafsiri Hilol»i va nihoyat Abdulaziz Mansurning «Qur’oni karim ma’nolarining tarjima va tafsiri» kabilarni aytish mumkin. XX asrda yozilgan Muhammadjon Hindistoniy tarjimasi esa alohida ahamiyatga egadir. «Hindistoniy domla», «Hoji Hidistoniy», «Mavlaviy domla» kabi nomlar bilan shuhrat qozongan, O‘rta Osiyo hududida ilm-ma’rifat ziyosini taratishda beqiyos xizmat ko‘rsatgan ulug‘ olim, buyuk ustoz Muhammadjon domla Mavlaviy mulla



Rustam o'g'li Xo'qandiy bo'lib, u kishi imom Buxoriyning «Sahih»ini, Burhoniddin Marg'inoniyning «Hidoya» asarini, Abu Hanifaning «Fiqhul akbar»ini, Abdurahmon Jomiyning «Sharhi Mullo», Muhammad Xayriobodyning «Mirqotul-mantiq» asarlarini sharh qilgan. «Usuli Shoshiy», «Nurul anvor» va «Muxtasari maoniy» kabi asarlarni o'zbek va fors tillariga tarjima qilgan. Abdulqodir Bedil g'azallariga sharh yozgan. Shoh asari sifatida Qur'oni karimga yozgan tafsirlari e'tirof etiladi. Asarning nomi «Bayonul furqon fi tarjimatil Qur'on» («Qur'on tarjimasida farqlovchi bayon»)dir. Shogirdlari ushbu tafsirning ta'lifi haqida, jumladan, shunday deganlar: «Arabiy, forsiy tafsirlar juda ham ko'p bitilgan, ammo o'zbek tilida tafsir, deyarli, yo'q. Shu bois ushbu ulug' ishni baholi qudrat bajarishga bel bog'ladik. Ko'pchilikka tushunarli bo'lishi uchun tafsirni Andijon lahjasida bayon qilamiz. Kamchiliklarimiz bo'lsa, muhtaram o'quvchilarimizdan isloh qalami ila tuzatishlarini umid qilib qolamiz». Bu tafsir og'zaki uslubdagi tafsir bo'lgani sababli, o'ziga xos tuzilishga, yozilish usuliga va alohida ruhiyatga ega. Asarda ko'pincha oyatlarning tarjimasini so'zma-so'z bo'lmay, tafsir aralash berilgan. Ba'zan oyatning tafsiri uning tarjimasidan oldin keladi. Bir xil oyatlar biroz farqli tarjima qilingan. O'sha payt urfiga ko'ra, tarjimada yordamchi so'zlar ajratilmagan. Asarda keltirilgan xabarlarga ko'pincha manba ko'rsatib o'tirilmagan, balki hikoya tarzida aytib o'tib ketilgan. Asar bugungi kunda ham o'z qiymatini yo'qotmagan. [1:66].

Taniqli o'zbek ulamolaridan bo'lmish Shayx Alouddin Mansur, 1952 yilda Qirg'iziston Respublikasi O'sh viloyatining Qorasuv shahrida tug'ilgan. U kishi zamonasining atoqli olimlaridan tahsil olib, ilmini kamolga yetkazdi. Olim Qur'oni karim ma'nolarining o'zbekcha izohli tarjimasini tayyorlashdek ulkan vazifani sharaf bilan ado etdi hamda uning tarjimasini O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari boshqarmasi o'tkazgan tanlovda eng yaxshi deb topildi. Asar ilk nashrlarida «Qur'oni karim. O'zbekcha izohli tarjima», deb atalgan. U 1990 yil «Sharq yulduzi» oynomasining 3-sonidan boshlab mushtariylar e'tiboriga havola



etildi. Bu birinchi tajriba bo'lgani bois, avvalo, Qur'oni karimni, arab tilini, din tarixini biladigan mutaxassis va ijodkorlardan iborat maxsus tahrir hay'ati nazoratida bosilgan. Jurnal 170 ming adadda nashr qilinar edi. Tarjima ancha tuzatishlar, to'ldirishlar bilan mukammal holga keltirilib, 1992-93 yillarda «Cho'lpon» va «G'afur G'ulom» nashriyotlarida qayta- qayta nashr qilindi. Muallifning ta'kidlashicha, ushbu tarjimaning bosma adadi (tiraji) jami ikki millionga etgan. Asar 1995 yilda o'zbek tilidan turkmanchaga tarjima qilinib, Turkmanistonda o'n ming nusxada chop etildi. 2001 yilda Bishkek shahrida lotin alifbosida va qozoq tiliga o'girilgan nusxasi nashr qilindi. Tarjimon ushbu tarjimasi asosida «Qur'oni Azim tafsiri» nomli o'zbekcha tafsirga ham qo'l urgan. Uning birinchi jildi «Fotiha» va «Baqara» suralari tafsiriga bag'ishlangan bo'lib, 2013 yilda Bishkekda nashr qilingan. Hozirda tafsirning yetti jildi bosmadan chiqqan bo'lib, ularda Qur'oni karimning taqriban yarmidan ko'pi o'zbek tiliga tarjima va tafsir qilingan. [1:79]

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf 1952 milodiy sana 15 aprel kuni O'zbekiston Respublikasining Andijon viloyatida tavallud topgan. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlari yuzlab bebaho asarlar muallifidir. U kishining shoh asari Qur'oni karim tafsiriga bag'ishlangan «Tafsiri Hilol» kitobi hisoblanadi. «Tafsiri Hilol»ning birinchi nashri 1991 yili Qur'oni karimning 30-juz tafsiri bilan boshlangan. So'ngra 29, 28, 27- juzlar tafsiri birin-ketin kitobxonlar qo'liga etib bordi. Keyin muallif chet elda ilk bora 26-juzning tafsirini nashr qildirdi. So'ngra «Baqara» surasining, so'ng «Oli Imron» va «Niso» suralarining tafsiri alohida kitob bo'lib chop qilindi. Muallif Vatanga qaytgach, 2006 yili «Tafsiri Hilol» 6 juzda to'liq nashr qilindi. 2008 yil tafsirning to'ldirilgan ikkinchi nashri, 2013 yil uchinchi nashri chop etildi. Tafsirdan oyatlarning ma'no tarjimalari ajratilib, alohida bir juz etib ham nashr qilingan. [1:80] Ushbu tafsir bir-necha jihatdan afzalliklarga ega. Bu xususida muallif yozadilar: «Tushuntirish uchun qo'shilayotgan so'zlarni qavslar ichiga olib yozdik. Ular ham kifoya qilmasa, o'z



so‘zimiz bilan tushuntirish jumllarini keltirdik. Oyatlarni bir-biriga bog‘lash uchun ham tushuntirish yozdik. Ba‘zi oyatlarning tushish sabablari haqida rivoyatlar kelgan bo‘lsa, ularni ham keltirdik. Ba‘zilarini tushuntirishga tarixiy voqealarni, qissalarni keltirish zarur bo‘lsa, keltirdik. Ba‘zi shaxslar, qavmlar haqida qisqacha ma‘lumotlar ham berdik. Iloji boricha oyatlar tafsirida diyorimizda tarqalgan yo‘lni ixtiyor qildik. O‘quvchining e‘tiborini Qur‘oni karim matnidan chetlatadigan ma‘lumotlarni zikr qilmaslikka harakat qildik. Misol uchun, Alloh taolo osmonni bekamu ko‘st yaratib qo‘ygani haqidagi oyat tafsirida osmon haqidagi ilmiy ma‘lumotlarni xohlagancha keltirish mumkin, lekin biz o‘quvchilarimiz bu kabi ma‘lumotlarni boshqa manbalardan o‘qib olishgan yoki o‘qib olishar, degan fikrda ortiqcha bayonga yo‘l qo‘ymaslikka harakat qildik. Qo‘lyozmni diniy aqiyda va ilmlarimizni yaxshi biladigan kishilarga ko‘rsatish bilan birga ularning fikr va mulohazalarini ham e‘tiborga oldik. Albatta, inson ojiz, agar bu kamtarona ish muvaffaqiyatli chiqsa, Allohning marhamatidan, kamchilik va xatolar bo‘lsa, Yaratganning O‘zi afv aylasin. Maqsad - kishilar ozgina bo‘lsa ham, Qur‘oni karimdan xabardor bo‘lsinlar.” [3:626]

Alimov Usmonxon Temirxon o‘g‘li hazratning qalamiga mansub “Tafsiri Irfon” asari Qur‘oni karim ma‘nolarini ona tilimizda mahorat bilan aks ettirgan muhtasham kitobdir. Muallif ushbu kitobga yozilgan so‘zboshida uning ta‘lif etilish sabablarini bayon qilib, asar haqida ma‘lumot beradilar: “Markaziy Osiyodan chiqqan yoki shu yerda o‘qib, boshqa shaharlarda istiqomat qilgan ulamolar tomonidan yaratilgan bundan boshqa tafsirlar ham ko‘p. Masalan, tojik, tatar, o‘zbek tillarida yozilgan “Al-itqon”, “Tafsirun No‘moniy”, “Tafsiru Mavokib”, “Tafsirut-Tibyon”, “Tafsiru Mavlono Ya‘qubi Charxiy” va boshqa mo‘tabar tafsirlar mavjud. Ushbu Qur‘oni karimning ma‘nolar tarjimasini va tafsiri boshqalaridan shu bilan farqlanadiki, unda oyatlar ma‘nosi iloji boricha zamondosh o‘quvchilarimizga tushunarli, sodda va ravon bo‘lishiga harakat qilindi. Bunda oyatlar tarjimasida qavs ichidagi izohlardan iloji boricha voz kechildi. Oyatlarni



tafsir qilishda o'tmishdagi va hozirdagi ulug' mufassirlardan Abu Mansur Moturidiyning "Ta'vilotu ahli sunna", Abul Fido ibn Kasirning "Tafsirul Qur'anil-aziyim", Ibn Jarir Tabariyning "Tafsiri Tabariy", Jaloliddin Suyutiyning "Ad-Durrul mansur fi tafsiril-ma'sur", Nosiriddin Bayzoviyning "Anvarut-tanzil", Imom Abul Barakot Nasafiyning "Madorikut-tanzil va haqiqut- ta'vil", Alouddin Xozinning "Lubobut-ta'vil fi ma'onit-tanzil", Jaloliddin Mahalliy va Jaloliddin Suyutiyning "Tafsirul-Jalolayn", doktor Vahba az-Zuhayliyning "Tafsiri Munir" tafsirlari hamda rus, tatar tillaridagi tafsirlardan istifoda qilish bilan bir qatorda zamonaviy fan-texnika yutuqlari va kashfiyotlari bayon etilgan ilmiy kitoblardan ham foydalanildi. Ushbu tafsirdagi oyatlarning ma'nosi ustoz shayx Abdulaziz Mansur janoblarining "Qur'oni karim ma'nolari tarjimasini" asosida o'girildi" [2:5]

Shayx Alouddin Mansurning "Qur'oni Azim muhtasar tafsiri"da o'tgan tafsirchi ulamolar izidan borilib, har bir oyat ma'nosini tarjima qilishdan tashqari unga uch turli izoh ham qo'shilgan. Dastlab har bir sura oldida o'sha suraning qisqacha mazmuni qilindi, so'ng oyatlar tarjimasini orasida qavs ichida qisqacha izohlar berilgan. Bundan tashqari ayrim tushunilishi o'ta murakkab bo'lgan oyatlar ostida alohida izohlar qo'shilgan. Shuningdek, oyat tarjimasini bilan izohlar o'rtasidagi farq aniq bo'lishi uchun ikki turli harf qo'llanilgan: oyat tarjimasini qabariq - qora harfda, har bir sura oldidagi va qavs ichidagi izohlar hamda ayrim oyatlar ostidagi alohida izohlar yozma (kursiv) harfda berilgan.

Shayx Abdulaziz Mansurning "Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri"da ham bir qancha e'tiborga molik jihatlar mavjud. Junladaan, mazkur tafsirning hanafiy mazhabiga mansub mashhur mufassirlarning tafsir kitoblariga asoslangan holda tayyorlangani, boshqa mazhablarga doir tafsirlardan ham kerakli joylarda foydalangan holda fiqhiy masalalar bo'yicha to'rt mazhab o'rtasidagi farqlar ham aytib o'tilgani uning alohida xususiyatlaridandir. Shuningdek, oyatlarning tarjimasida arabcha matn ma'nosi imkon qadar so'zma-so'z, qulay tarzda ifoda etilganligi ham uning ommabopligini saqlagan holda qiymatini



oshirgan. Kitobning so‘ngi nashrida qo‘shimcha yordamchi so‘z va izohlar qavs ichida, tafsir kitoblar va boshqa foydalanilgan manbalarning nomlari esa iqtiboslardan keyin qisqartma shaklda ramziy harflar bilan berilgan.

O‘zbek tilida yozilgan tafsirlardagi ba’zi farq va o‘xshashliklar: Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning “Tafsiri Hilol” asarlarida Qur’on oyatini Qur’on oyati bilan tafsir qilganlar va xuddi shu yo‘nalish Usmonxon Alimovning “Tafsiri Irfon”larida ham ko‘rinadi. Tafsiri Hilol va Tafsiri Irfondagi o‘xshash jihatlar har bir oyatga alohida to‘xtalib tafsir berilishidir. Abdulaziz Mansurning tafsirlarida esa suralarga umumiy to‘xtalib, qisqa izoh berib o‘tilgan. Mazkur tafsirda kuzatish mumkin bo‘lgan yana bir farq-qavs ichida oyatlarga izoh berishdan chekinilganligi. Boshqa tafsirlarda esa, buning aksi. “Qur’oni karimning ma’nolari tarjimasi va tafsiri”ning so‘ngi nashrlari Yevropa musulmonlari uchun yozilgan tarjimali Qur’on kabi, arabiy matn bilan birga mus’haf sahifalari berilib, uning ostida izoh va atrofidan ma’noviy tarima, tafsirlari joylashtirilgan. Bu o‘quvchi uchun qulay bo‘lib, mutolaa davomida asl matn bilan tarjimani solishtirish imkoniyatini beradi.

Xulosa. Tafsir ilmi shunday ilmki, u hech qachon eskirmaydi. Bu ilm Zamon va davrlar o‘tishi bilan yangilanib, o‘sha davr ehtiyojlari, muammolarini qamrab olib rivojlanib boradi. Yurtimizda bugungi kunda ham tafsir ilmi borasida shu davrgacha qilingan ishlardan-da ortiqroq e’tibor qaratilmoqda desak, mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Chunki bugungi globallashuv jarayonlarida bu ilmning mohiyatini yanada kengroq yoritib berishga ehtiyoj ortishi soha mutaxassislari zimmasiga alohida mas’uliyat yuklamogda.

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI

1. M.M.Agzamova. Islomshunoslik. darslik / M.M.Agzamova Toshkent “Ozbekiston xalqaro islom akademiyasi” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2021. –176 b.
2. Shayx Usmonxon Temurxon Samarqandiy. Tafsiri Irfon, Toshkent: “Sharq” HMAK, 2019. – 752 b.
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf Tafsiri Hilol. 6-juz. Tuzatilgan va to‘ldirilgan qayta nashr/Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. T.: «Sharq», 2012. – 640 b.